



ABDULLA QODIRIY ASARLARINING TIL XUSUSIYATLARI

¹Shernazarova Gulshan Abdullayevna

²Matqurbonova Muhabbat Shokirovna

Urganch Innovatsion University

Ijtimoiy - gumanitar fanlar va pedagogika fakulteti

"Ijtimoiy- gumanitar va tillar" kafedrasi assistent o'qituvchilari

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8004392>

ARTICLE INFO

Received: 26th May 2023

Accepted: 01st June 2023

Online: 02nd June 2023

KEY WORDS

Mustabid tuzum, badiiy adabiyot, tilshunoslik, nazariy tahlil, "O'tkan kunlar", leksik va Grammatik vositalar.

ABSTRACT

Mazkur maqolada jadid namoyondalaridan biri bo'lmish Abdulla Qodiriy ijodidagi asarlarning til xususiyatlari va lingvistik tahlili bo'yicha fikr-mulohazalar yuritilgan.

Ming yillik adabiyotimiz tarixida tilimizning ana shunday bepayon imkoniyatlarini o'zida xolis mujassam etgan badiiy asarlar benihoya ko'p. Ammo mustabid tuzum davrida milliy istiqloq g'oyalari kuylagan Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat kabi yirik so'z san'atkorlarining bunday asarlarini o'rganishga imkoniyat berilmadi. Yurtimiz istiqloli bu yo'ldagi barcha g'ovlarni olib tashladi. O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridayoq mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov shunday degan edi: "...Mustabidlik zamonida xalqimiz xotirasidan ataylab o'chirilgan mo'tabar insonlarning nomlari birin-ketin tiklanyapti. Abdulla Qodiriy va Abdulhamid Cho'lpon, Abdurauf Fitrat va Usmon Nosir kabi Vatanimiz, millatimiz ozodligi yo'lida shahid ketgan o'nlab siymolarning ma'naviy meroslari bugun xalqimiz bisotiga qaytmoqda", -¹deb ta'kidlaganlaridek, o'zbek tilshunosligi oldiga ilm-fan qo'yayotgan talablardan biri sifatida o'zbek adabiyotidagi nodir badiiy asarlarning til xususiyatlarini tahlil qilish masalasini ham alohida ta'kidlab ko'rsatish mumkin.

Badiiy asarlarining tili bobida benazir ibrat maktabini yaratgan Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanining tili hozirga qadar lingvistik nuqtayi nazardan qisman o'rganilgan. Ana shuni hisobga olgan holda Abdulla Qodiriy boshqa asarlari tili badiiyatini ta'minlovchi vositalarni o'rganishni oldimizga maqsad qilib oldik. Yozuvchi asarlarida o'zbek tilining jozibasini, ohangdorligi, ifodaliligi, ta'sirchanligi turfa lingvistik vositalar yordamida tasvirlab berilgan. A.Qodiriy asarlariga xos lingvistik mahoratni belgilash mazkur tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Adabiyotlar tahlili (sharhi).

Mazkur maqola davomida Qodiriy asarlaridan, shuningdek, O'zbek filologiyasida badiiy asar til muammolari, xususan, bir qancha adiblar badiiy asarlarining lingvopoetikasi

¹ I.Karimov "O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura", tom1, Tashkent "O'zbekiston nashriyoti" 1996, 88 bet.



masalalariga bag'ishlangan bir qator tadqiqotlardan foydalanildi. Masalan, N. Mahmudovning bir qator maqolalarida ayrim shoir va yozuvchilar asarlari tilining lingvopoetikasi bo'yicha qiziqarli fikrlar ilgari surilgan². L. Jalolova³, Choriyeva. Z, kabi tadqiqotchilarning maqolalarida ham badiiy asardagi muayyan usul va shakllarning lingvistik mohiyatini tahlil qilishga harakat qilingan⁴. A. Boboniyozovning nomzodlik dissertatsiyasi ishda asosiy manba vazifasini o'taydi.⁵

Asosiy qism.

O'zbek tilshunosligi ham boshqa fan sohalari kabi doimo o'sish va o'zgarishda. U o'zining nazariy va amaliy faoliyatini davr bilan hamnafaslikda takomillashtirib bormoqda. Bugungi kun o'zbek tilshunosligining taraqqiyoti to'rtta eng muhim omillar asosida rivoj topayotgani, shulardan biri - o'zbek tilini o'rganishning amaliy bosqichida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar asosida bevosita kuzatishda berilgan nutqiy hodisalar zamiridagi lisoniy mohiyatlarni idrok etishga intilish olimlarimiz tomonidan e'tirof etilmoqda. Ana shunday nutqiy hodisalardan biri bo'lgan matn va uning qurilishini o'rganish o'zbek tilshunosligida so'nggi yillarda rivoj topayotgan matn lingvistikasi, pragmalingvistika, lingvopoetika va kognitiv tilshunoslik sohasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Buning natijasi o'laroq, shaxs va til munosabatiga e'tibor kuchaymoqdaki, bu tilshunoslik fanini idrok etish, bilish, tushunish, tahlil qilish faoliyatlariga oid tushuncha va kategoriyalar bilan boyimoqda. "Natijada tilshunoslikning mantiq, psixologiya, bilish nazariyasi kabi kognitiv fan sohalari bilan hamkorlikka ehtiyoji kuchaymoqda"⁶. Demak, hozirgi kunda tilshunoslar e'tiborini tortib kelayotgan shaxs va til munosabati bevosita kognitiv tilshunoslik bilan uzviy aloqadorlikda o'rganilishni taqozo etmoqda. Ishga bu tarzda amaliy yondashish keyingi yillarda ko'plab tilshunoslarni qiziqtirib kelayotgan badiiy asar tilini lingvistik jihatdan tahlil qilishda kutilgan natijalarni berishi, shubhasiz. Chunki "lingvistik tahlil - kognitiv tahlilning bir turi, uning ma'lum bir ko'rinishda namoyon bo'lishidir"⁷

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida qo'llanilgan o'xshatishlar betakrorligi, jozibadorligi bilan kitobxonni o'ziga jalb etadi, unga zavq bag'ishlaydi. Bu esa yozuvchining tilimizni yashirin imkoniyatlari, o'xshatish hosil qiluvchi vositalarini yaxshi bilishidan dalolat beradi. Abdulla Qodiriy so'z san'atidan, tilimizdagi badiiy tasvir vositalaridan ustalik bilan foydalangan. Romandan ko'chimlar va figuralarga istagancha misollar topish mumkin. Ayniqsa, o'xshatish va uning turlariga misollar rang-barangdir. Romandagi har bir personaj o'zga bir olam. Ularning nutqi va nutqining ravonligi ortiqcha so'z va gaplardan mutasnoligi tilimizning boyligini oshiradi. U, albatta, yangi so'z ayta oladi. Asarning badiiyligi juda kuchli

² Mahmudov N. O'xshatishlar - obrazli tafakkur mahsuli. // O'TA, 2011, 3-son

³ Жалолова Л. Абдулла Қодирий асарларидаги жонлантиришларнинг лингвопоэтик тахлили // Узбек тили ва адабиёти, 2000, 4-сон.

⁴ Чориева З. «Уткан кунлар»даги мактубларда тасвирий воситалар. // «УТА», 2005, №5. 84-85-бетлар

⁵ Boboniyozov A. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida tasviriy vositalar va til badiiyati: Filol. fanlari nomzodi ... diss. - T., 1995;

⁶ Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. -Жиззах: Санзор, 2006. -Б7.

⁷ Сафаров Ш. Курсатилган асар. -Б.9.



berilgan. Til boyligini yuzaga chiqarishda uni ahamiyatliligi va ta'sirchan bo'yoqlarga boyligi, o'xshatishga to'plangan misollardan ham ko'rinib turadi. Ish davomida leksik va grammatik tipdagi o'xshatishlarga ko'plab misollar to'plandi. Romanni o'qir ekanmiz, o'xshatishga ko'plab misollar uchramiz. Albatta, original, ya'ni badiiylik ufurib turgan yoki o'xshatish yaqqol namoyon bo'lgan misollar tahlilga olindi. Ular ikki guruhga ajratiladi:

➤ Leksik vositalar bilan hosil bo'lgan o'xshatish:

➤ Grammatik vositalar bilan hosil bo'lgan o'xshatish.

1. Leksik vositalar bilan hosil bo'lgan o'xshatishlar. O'xshatish hosil bo'lishida anchagina mustaqil va yordamchi so'zlar ishlatiladi: *kabi, singari, qadar* ko'makchilari vositasida. Bunda predmetlar harakati holati bilan bog'liq bo'lgan bir-biriga yaqin belgilar qiyos qilinadi. Bu ko'makchi har doim o'xshatiladigan predmetni ko'rsatuvchi so'zlardan keyin keladi.

Bularni yozuvchi asarlari asosida ko'rib o'tamiz. Adibning "*O'tkan kunlar*" romani badiiy til mahoratining keng ko'lamli qirralarini aks ettirish namunasidir. Yozuvchi o'zining birinchi romanidayoq til xususiyatlari bilan badiiy asarga qo'yiladigan barcha talablarga javob bergan edi va roman tili sodda, bo'yoqdor, ifoda va tasvir kuchi jozibador edi:

Musulmonqul o'z g'arazi yolida orada yo'q nizolarni qo'zg'ab, kuyavi Sheralixonni oldirdi, gunohsiz Murodxonni shahid etdi, qo'y kabi yuvvosh Toshkand hokimi Sarimsoqbekni o'ldirib, o'rniga Azizbekdek zolimni belguladi va o'zini mingboshi deb e'lon qilib, aqlsiz bir go'dakni (Xudoyorni) xon ko'tarib el yelkasiga mindi(10-bet.)

Bu o'rinda Musulmonqulning o'z manfaati yo'lida hech qanday yo'ldan qaytmasligini, hatto qabih maqsadini amalga oshirish uchun odam o'ldirish darajasigacha borish holatlariga guvoh bo'lamiz. Bu keltirilgan qisqagina misol orqali Azizbekni shu holida ham zolimligini, Sarimsoqbekni esa "*qo'y kabi*" yuvvosh ekanligini anglash mushkul emas. Sarimsoqbek begunoh, balki beozor insonligini ushbu keltirilgan parcha orqali ham bilib olsa, bo'ladi. Yozuvchi o'z qahramonlarini shunday o'xshatishlar orqali tasvirlaganki, xuddi ularni ko'rib turgandek his qilasiz. Bu misolda ham leksik, ham grammatik o'xshatishlar bor. O'xshatishni yuzaga chiqarishda yozuvchining *kabi* yordamchi so'zi va - *dek* grammatik vositasidan unumli foydalanganligi ko'zga tashlanadi.

Sarimsoqbek - o'xshatish subyekti; qo'y- o'xshatish etaloni; o'ldirmoq semasi - o'xshatish asosi; -kabi - o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi hisoblanadi. Azizbek - o'xshatish subyekti ham etaloni, - dek - o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi, e'lon qilmoq- o'xshatish asosi. Boshqa qahramonlar ham o'ziga xos tarzda betakror o'xshatishlar vositasida berib o'tilgan.

Bir narsa boshqasiga aynan, butunligicha, o'xshatilganda, o'xshatish asosning qo'llanmasligi asosiy holatdir. Bunda aytish mumkinki, fotografik tasviriylik yuzga keladi, ya'ni o'xshatilgan narsa ko'z oldimizda gavdalanadi: *O'rtadan ko'b fursat o'tmadi, boyag'i uyqusirashyana takrorlandi:*

— «*Oy kabi yuzlar, kulib boqishlar, cho'chib qochishlar... Uff*»(13-bet)

Otabekning Kumushni ko'rgandan buyon o'zgarib qolish holatini muallif juda go'zal, mohirona berib o'tadi. Uning ichki kechinmalarini ochiq oydin emas, balki oddiy alahshirash orqali Hasanaliga, u vositasida esa kitobxon-o'quvchiga ko'rsata olgan. Bu bilan Kumushning naqadar go'zalligini, uning yuzini go'yoki oyga qiyos etilayotgan ekanligini bilib olish qiyin emas. Keyingi o'rinlarda esa Kumushbibining tavsifi kuchayib boradi:



*Kumushbibi ham ixtiyorlik, ixtiyorsiz bu kulgulikka tortilib, uning yuvoshqina iljayishidan yoqutdek lablari ostidagi **sadaf kabi** oq tishlari biroz ko'rinib qo'ydilar(35-bet).*

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, bu yerda ham leksik va grammatik vositalar birgalikda qo'llanilyapti. Kumushbibi - o'xshatish subyekti; yoqutdek va sadaf - o'xshatish etaloni; lablar hamda oq tishlar - o'xshatish asosi; kabi va - dek - o'xshatishning shakliy ko'rsatkichlaridir. Ushbu matnda biz ketma-ket kelgan o'xshatishlarni uchratdik. Bu yozuvchining mahoratli ekanligidan dalolat beradi. Ushbu o'rinda kelgan ketma-ket o'xshatishlar badiiy nutqning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

*Bu kungi kech Otabek bilan Homidning hayot va mamot masalalarini o'zining qora quchog'ig'a olg'an qorong'i bir tun edi va bulardan qaysi birlarining so'ng soatlariyetkanligi shu **qorong'i tun kabi** qorong'i edi(162-bet).*

Otabek bilan Homidning o'tasidagi kurashni yozuvchi o'xshatishlar orqali berib, ularning qay birisi omon qolish holatini, xuddi qorongi tunga qiyos etgan. Bu misolda yozuvchi *kabi* o'xshatishni yuzaga keltiruvchi leksik vositadan foydalangan va “*qorong'i tun kabi*” birikmasi sifat so'z turkumiga aylanib, o'xshatish hosil qilishda ishtirok etgan.

An'anaviy o'xshatishlar og'zaki nutqda ko'p ishlatiladi, shu asosida yozuvchi tabiat tasvirini ham o'xshatishlar asosida berib o'tadi:

*Chinor shoxlari **tasbeh kabi** chizilg'an boyqushlar bilan to'lg'an. Ular oy nuridan uncha xursand emaslar, chunki oy yer yuziga kulib qaray boshlasa, ular boshlarini kaftlari ichiga oladirlarda, dum-dumaloq bo'lib siqilib ketadirlar(146- bet).*

An'anaviy o'xshatishlarni tasviriylik, obrazlilik maqsadiga xizmat qildirish yozuvchining mahoratiga bog'liq. Chinor shoxlariga kelib joylashgan boyqushlar go'yoki tasbehga o'xshatilmoqda. Bu esa yozuvchining o'xshatishlar borasidagi mohirona uslubidan dalolat berib turadi.

Adib ko'p hollarda harakatdagi yoki muayyan holatdagi o'xshatish etalonlarini tanlaydi. Bu harakat yoki holat ko'pincha sifatdosh yoki sifatdosh oboroti orqali ifodalanadi va bu sifatdosh yoki sifatdosh oboroti bevosita etalonni ifodalaydigan bo'lakka aniqlovchi bo'lib keladi:

*Oy bulutlar osng'a kirsa, ular **rohatlang'an kabi** chig'-chig'-chig', ki-ki-ki qilib sayrab ham yuboradirlar. Bu vaqt shu boyqushlar sayrog'i ichidan ingranish kabi bir tovush ham eshitilgandekboladir(146-bet).*

Oyning bulutlar orasiga kirish tarzini ko'rib turgan boyqushlarning keyingi holatini yozuvchi ularning sevinish, rohatlanishi deb tasvirlab, hatto bundan ularning xursandchilik ohanglarini ham aks ettiradi. Bu misolda o'xshatishning leksik va grammatik formalari ishtirok etgan va “ rohatlangan kabi”, eshitilgandek” birikmalarida ko'rinadi. Bu o'xshatishning ma'no-mazmuni shu qadar to'q va ta'sirchanki, Qodiriyning til sezgisidan, tilni qahramon ruhiyati va milliy tasavvur bilan uyg'unlashtira olishdan hayratga tushmaslik mumkin emas.

*Uyning yarmisi quruq yer — qora shibdan iborat bo'lsa-da, ammo lo'rida chaqich bog'labyiltiramakda bo'lg'an — **kir, yulduz kabi ilmateshuk** jafokash oq kiyiz, ham taxmondag'i eski sandiq ustiga yig'ib qo'yulg'an bir to'da paxtasi chiqq'an uvadalar ko'rpa-yosti otini o'z ustilariga olur edilar (114-bet).*



Ushbu tasvirdan ham bilib olishimiz mumkinki, uying eski, undagi narsalar ham shunday ekanligini, undagi kiygizni *ilmateshuk*, *kir yulduzga* o'xshatish holatiga guvoh bo'lamiz. Yuqoridagi o'rinlarda ham yozuvchi *kabi* yordamchi so'zidan mohirona foydalangan.

Yanglig', bamisoli, misoli, misli ravishlari vositasida. Bunda boshqa bir qonuniyatni kuzatamiz. *Yanglig'* so'zi doimo o'xshatish obrazidan so'ng qo'llaniladi, postpozitiv holatda bo'ladi:

Tanish bo'lmag'an bir shaharda kimning bo'lsa ham qizig'a uchrashsin, besh-olti kun ichida bu yanglig' uyquda ham... masalaga bu jihat bilan qarab bekning ishqig'a ishongusi kelmas edi(13-bet). Bu misolda ham yozuvchi leksik vosita bilan ko'chim, o'xshatish hosil qilgan. *Yanglig'* so'zi asosida Otabekning ichki ruhiyati, holati ifodalangan. *Yanglig'* so'zi qiyos etilayotgan so'zdan oldin kelmoqda.

Negaki men o'zimning suygan va muhabbat qo'yg'an erimdan buncha uyatsizlik, bu yanglig' vafosizlik ko'rdim (139-bet). Keltirilgan bu misolda Kumushbibining Otabekdan vafosizlik ko'rish tasviri ham *yanglig'* so'zi orqali berib o'tilgan. Bunda ham yuqoridagi kabi qiyos etilgan so'z, ya'ni "vafosizlik so'zidan oldin " bu yanglig' " tarzida o'xshatish hosil qilinmoqda.

Bog'lovchilardan go'yoki ham predmetlar, voqea-hodisalarni bir- birlariga qiyos qilishda tez-tez ishlatiladi. Go'yoki yordamchisi ko'proq o'xshatish ergash gapni bosh gapga bog'lash uchun xizmat qiladi:

Ariqning musaffo, tiniq suvi yuvvoshg'ina oqib kelar, Kumushbibining qarshisig'ayetkandago'yoki, uning ta'zimi uchun sekingina bir charx urib qo'yar, o'z ustida o'lturgan sohiraning sihriga musaxxar bo'lg'an kabi tag'i bir kattaroq doirada aylangach, ohistag'ina ko'prik ostig'a oqib ketar edi. Uningyuzini o'pib tushkan suv tomchilari bilan ariq harakatka kelib chayqaldi, go'yoki suv ichida bir fitna yuz bergan edi... Ikkinchi, uchinchi qaytalab yuz yuvishda bu fitna tag'i ham kuchaydi... (18-bet).

Ushbu keltirilgan misollarda o'xshatishni ifodalash uchun go'yoki bog'lovchisi qo'llanilgan. Bunda bu bog'lovchi ergash gap tarkibida kelib, uni bosh gapga bog'lash uchun xizmat qiladi. Va o'xshatish ergash gapli qo'shma gapni hosil qiladi.

Oftob oyim uchun go'yoki qizining birar aybi uchun bu ishka majbur boling'andek, Kumush esa endi eriga suyumsiz, ishdan chiqq'an va burchakka Hqilg'an uvadadek bo'lib ko'rina boshlag'an edi (93-bet).

Bu misolda leksik va grammatik vosita birgalikda qo'llangan bo'lib, o'xshatishni yuzaga chiqarish maqsadida Kumush xuddi uvadaga qiyos etilmoqda. Ya'ni, u endi keraksiz, Otabek uchun unutilganga o'xshatilmoqda. Bu ham yozuvchining mahoratidan dalolat beradi.

Uzoq-yaqin xotinlarning «Hoy, O'zbek oyimning marg'ilonliq kelini ham kelibdur, xuddi to'tining bolasi emish. Yuringlar, bir ko'raylik», degan so'zlari eshitilgandek bo'ldi(201-202-betlar).

Bu misolda o'xshatish, qiyoslash ma'nosi anglashilib turibdi. Leksik vosita, ya'ni xuddi so'zi orqali hosil qilingan. U doimo o'xshatilgan predmet yoki shaxsdan oldin keladi. Qo'shma gap komponentlarini bog'lashga xizmat qiladi. Va har doim ergash gap tarkibida keladi.

2. O'xshatishni yuzaga keltiruvchi grammatik vositalar.



O'zbek tilida bir nechta affiks borki, ular biror bir predmet belgi yoki holatni boshqalariga o'xshatish, qiyos qilish uchun xizmat qiladi. Ular quydagilar: -day (-dek), -simon, -ona, -namo, -larcha, -omuz, -cha, -chasiga, -dan, -li.

Bu affikslar, odatda, o'xshatish obrazini ko'rsatuvchi so'zga qo'shiladi va biror predmet, belgi yoki holatni shu so'z orqali ifodalangan predmet yoki belgi bilan qiyos qilishga yordam beradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qodiriyning har bir asari tarkibida so'zlarning til xususiyatlari o'ziga xos qo'llanilgan bo'lib, adibning asarlarini tahlil qilish orqali uning mukammaligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

References:

1. I.Karimov "O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura", tom1, Tashkent "O'zbekiston nashriyoti" 1996, 88 bet. Mahmudov N. O'xshatishlar - obrazli tafakkur mahsuli.// O'TA, 2011, 3-son
2. Жалолова Л. Абдулла Қодирий асарларидаги жонлантиришларнинг лингвопоэтик тахлили // Узбек тили ва адабиёти, 2000, 4-сон.
3. Чориева З.«Уткан кунлар»даги мактубларда тасвирий воситалар. //«УТА», 2005, №5. 84-85-бетлар;
4. Boboniyozov A. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida tasviriy vositalar va til badiiyati: Filol. fanlari nomzodi ... diss. - T., 1995;
5. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. -Жиззах: Сангзор, 2006. -Б7